

# SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

4

2024  
ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096



SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096

**Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**

*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**Tahrir hay'ati**

<b>D. Sayfullayev</b>	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinnbosari)</i>
<b>D. Muxiddinova</b>	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
<b>A. Mannonov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>R. Xodjayeva</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>Sh. Shomusarov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>Q. Omonov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>U. Muxibova</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>X. Xamidov</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>B. Abduhalimov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>A. Xodjayev</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>M. Is'hoqov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>A. Doniyorov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>I.Xaydarov</b>	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>X. Fayziyev</b>	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>N.Karimov</b>	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>D.Xodjimuratova</b>	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>Sh. Yovqochev</b>	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
<b>N.Abdullayev</b>	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
<b>A. Vahobov</b>	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
<b>R. Abdullayev</b>	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
<b>I. Mavlanov</b>	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
<b>R. Bahodirov</b>	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
<b>E. Izzetova</b>	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
<b>G. Glizon</b>	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
<b>A. Shonazarova</b>	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
<b>Ono Masaki</b>	<i>Yaponianing Tsukuba universiteti professori</i>
<b>Li Dji In</b>	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
<b>V. Mesamed</b>	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
<b>A. Gurer</b>	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
<b>A. Vorobyov</b>	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
<b>G. Avda</b>	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
<b>A. Tohir</b>	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
<b>H. Baydemir</b>	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, G. Hushnazarova**

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz  
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

### ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Azizxonova S.</i> Azimiy hikmatlarining badiiy va ma'rifiy xususiyatlari .....	5
<i>Абдуганиева Н.</i> Сказки индонезии и их формульность .....	13
<i>Qalandarov M., Xushnazarova G.</i> Kamoliddin Husayn voiz Koshifiyning “Lub ul-bob-masnnaviy” va Odina Eshon “miftoh ul-asror” asarlari tahlili.....	24
<i>Karimov N.</i> Li Munyol ijodida qaqnus qushi obrazi .....	33

### TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Begmatova B., Qurbonov S.</i> Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi .....	45
<i>Mirziyatov Sh.</i> “Muqaddamatu-l-adab” asari jahon Zamaxshariyshunoslari nigohida.....	56
<i>Abduvaliyeva O’.</i> Afg'oniston va Pokiston tilshunoslarining qo'shma so'zlar va kopulyativ qo'shma so'zlarga oid tadqiqotlari tahlili .....	64
<i>Ахмедова С.</i> Семантическая классификация слова «любовь» в арабском языке .....	72
<i>Rasulova K.</i> Oybekning “Navoiy” romanidagi portret tavsiflarining tarjimalarda berilishi .....	82
<i>Jumaniyazov M.</i> Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asarida keltirilgan she'riy baytlar va maqollar .....	93
<i>Saidov U.</i> Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar..	108
<i>Saydumarova M.</i> “O'tkan kunlar” romanidagi nutqiy etiket birliklarining arab va ingliz tillariga tarjima qilish xususiyatlari haqida .....	121
<i>Abdullayeva N.</i> Dunyo tilshunosligida o'zlashgan so'zlar masalasi. Ularni o'zlashtirish qoida va tamoyillari .....	134

### MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Faromarzi F.</i> Hofiz i Abru “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan qo'lyozmasi haqida.....	144
<i>Dr. Korayem S.</i> Literary heritage of Ali-shir Nava'i: (A study on his influence and contribution to world civilization) .....	157
<i>Jumayev G’.</i> Temuriylar davri manbalaridan “Osor al-vuzaro” asarining o'rganilishi .....	171

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //  
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //  
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

**BUZAHRO BEGMATOVA**

*Dotsent, yuridik fanlari nomzodi, TDSHU*

**SALOXIDDIN QURBONOV**

*Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU*

**Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi**

*Annotatsiya.* Ushbu maqola islom huquqidagi terminlarning turlari va tasniflarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Fiqh terminlarining mavzulari, ularning klassik va zamonaviy ishlatalish sohalari, leksik-semantic xususiyatlari o'rganilgan. Maqolada islom huquqidagi terminlarni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish, ayniqsa, iqtisodiy va tijorat sohalariga oid yangi atamalarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqola nafaqat klassik manbalarga, balki zamonaviy terminologiyaga asoslanib, ularning iqtisodiy va tijorat faoliyatida tutgan o'rni bo'yicha ilmiy yondashuvlarni tavsiya qiladi. Bu ish islom huquqiga oid tilshunoslik, iqtisodiyot va huquqiy fanlar chorrahasiswa muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot islom huquqi, lingvistika va iqtisodiy fanlar o'rtasidagi muhim aloqalarni ochib beradi va bu sohalarda o'rganish uchun yangi yo'naliшlarni keltirib chiqaradi. Maqola, shuningdek, zamonaviy terminologiyaning islom huquqi bilan qanday uyg'unlashishini ko'rsatadi. Shunngdek, xorijiy terminologiyaning arab tiliga moslashtirilishi va tasnifi, ayniqsa, islom huquqshunosligi kontekstida muhokama qilinadi. Maqolada arab grammatikachilarini tomonidan arab tilining yaxlitligini saqlab qolish uchun yangi, xorijiy atamalarni integratsiyalashgan holda qo'llagan turli klassik usullar yoritilgan. Bu usullarga mayjud arab o'zaklari asosida yangi so'zlarni hosil qiluvchi "ishtiqoq" (arabchalashtirish) va xorijiy so'zlarni arabcha fonologik va morfologik qoidalarga moslashtirib qo'yiladigan "ta'rib" (arablashtirish) kiradi. Arablashtirish jarayoni "kalka" (qarz tarjimasi) bilan ham qarama-qarshi qo'yildi, bu yerda xorijiy atamalar bevosita arab tiliga tarjima qilinadi. Muallif tilning klassik tuzilmalarini saqlab qolish va uning leksikasini zamonaviy ehtiyojlarni, xususan, iqtisodiyot va tijorat kabi sohalarda modernizatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** shariat, fiqh, huquq, termin, terminologiya, leksik-semantic xususiyatlar, mazhablar, jinoyat, sud.

*Abstract.* This article is devoted to the analysis of the types and classifications of terms in Islamic law. The topics of fiqh terms, their classical and modern areas of use, and lexical-semantic features are studied. The article considers the issues of adapting terms in Islamic law

*to modern needs, especially the development of new terms related to the economic and commercial spheres. The article recommends scientific approaches to their role in economic and commercial activities, based not only on classical sources, but also on modern terminology.*

*This work is of great importance at the intersection of linguistics, economics, and legal sciences related to Islamic law. The study reveals important connections between Islamic law, linguistics, and economic sciences and gives rise to new directions for study in these areas. The article also shows how modern terminology is combined with Islamic law. In addition, the adaptation and classification of foreign terminology into Arabic is discussed, especially in the context of Islamic jurisprudence. The article examines the various classical methods used by Arabic grammarians to integrate new, foreign terms in order to preserve the integrity of the Arabic language. These methods include "ishtiqaq" (Arabization), which creates new words based on existing Arabic roots, and "ta'rib" (Arabization), which adapts foreign words to Arabic phonological and morphological rules. The process of Arabization is also contrasted with "kalka" (loan translation), where foreign terms are translated directly into Arabic. The author emphasizes the importance of preserving the classical structures of the language and modernizing its lexicon to meet modern needs, particularly in areas such as economics and commerce.*

**Key words:** *shari'a, jurisprudence, law, term, terminology, lexical-semantic features, sects, crime, court.*

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу видов и классификаций терминов исламского права. Изучены тематика терминов фикха, их классические и современные сферы употребления, лексико-семантические особенности. В статье рассматриваются вопросы адаптации терминов исламского права к современным потребностям, особенности разработки новых терминов, касающихся экономической и торговой сферы. В статье рекомендуются научные подходы к их роли в экономической и коммерческой деятельности, основанные не только на классических источниках, но и на современной терминологии. Эта работа важна на стыке лингвистики, экономики и юридических наук, связанных с исламским правом. Исследование раскрывает важные связи между исламским правом, лингвистикой и экономикой и предлагает новые направления для исследований в этих областях. В статье также показано, насколько современная терминология совместима с исламским правом. Также обсуждается адаптация и классификация иностранной терминологии на арабский язык, особенно в контексте исламской юриспруденции. В статье освещаются различные классические методы, используемые арабскими грамматистами для сохранения целостности арабского языка при интеграции новых, иностранных терминов. Эти методы включают истикак (арабизация), который создает новые слова на основе существующих арабских корней, и тариф (арабизация), который адаптирует иностранные слова к арабским фонологическим и морфологическим правилам. Процесс арабизации также противопоставляется «калке» (заемному переводу), когда иностранные термины напрямую переводятся на арабский язык. Автор подчеркивает важность сохранения классических структур языка и модернизации его лексики в соответствии с современными потребностями, особенно в таких сферах, как экономика и торговля.

**Ключевые слова:** *шариат, юриспруденция, право, термин, терминология, лексико-семантические особенности, секты, преступление, суд.*

**KIRISH.** Islom huquqi deganda kompleks shaklda biz ibodat mavzularidan tortib, jinoyat, sud va oila masalalariga doir turkum masalalarning tizimli yoritilishini tushunamiz. Mana shu huquq tizimi masalalari o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha boblar va fasllarga bo‘linadi va u ham o‘ziga xos terminlarga ega.

Islom huquqi qisqa vaqt ichida paydo bo‘lib, favqulodda darajada rivojlangan va terminologiyasi ham shunga muvofiq rivojlanib, yetilgan. Shundayki, bu holat, Karaman ta’kidlaganidek, Von Kremer kabi sharqshunos olimlar islom huquqiga Qur’oni karim va hadisdan tashqari, ya’ni vahiy jarayonidan ilgari manba paydo bo‘lganini qidirishga<sup>1</sup>, ayrimlarini esa islom huquq terminologiyasining o‘ziga xosligini savol ostiga olishga olib kelgan<sup>2</sup>. Terminologiyaning o‘ziga xoslik masalasi esa alohida tadqiqot mavzusidir<sup>3</sup>.

Ammo bu yerda qisqacha ta’kidlab o‘tish kerakki, tadqiqotlarimizdan ko‘rinib turganidek, islom dini faqat tashqi dunyoga qaratilgan bir din sifatida kelmagan, o‘ziga xos ijtimoiy loyihasini amalga oshirishda o‘z qarshisidagi moddiy va ma’naviy unsurlarga to‘la qarshilik ko‘rsatmasdan, realistik yondashuv bilan va bosqichma-bosqich joriy etishga harakat qilgan. Bu jarayonda, aslo tasdiqlamagan narsalariga qarshi muqobil yo‘l ko‘rsatgan, tuzatilishi mumkin bo‘lganlarni tuzatib, zarur bo‘lganlarni yaratib, o‘z tizimi va terminologiyasini shakllantirgan. Biroq, bu huquq dastlab ma’lum bir doira-auditoriyaga qaratilganligi uchun, ular gapiradigan va o‘ylaydigan tilda amalga oshirilgan. Keyinchalik islom huquqiga, arab bo‘limgan musulmonlardan va hatto islomdan tashqaridagi unsurlardan ham atamalar kirib kelgan. Shundoq ham asrlar davomida dunyoning katta qismini boshqargan, shaxslar va jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan huquqning o‘zaro ta’sirdan xoli bo‘lishi mumkin emas edi. Shuning uchun terminologiya masalasida tashqi ta’sirni qabul qilish lozim. Biroq qaysi bosqichda bo‘lishidan qat’i nazar, islom huquqi o‘z terminologiyasining ruhini tashkil etuvchi tushunchalarni doimo o‘z nazoratida saqlab kelgani ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak bo‘lgan tarixiy haqiqat sifatida namoyon bo‘ladi.

Islom huquqshunosligida terminlarni tasniflashda olimlar, tadqiqotchilar ko‘pincha terminlarning mazmuni, dolzarbliji, shuningdek, ularning o‘ziga xos huquqiy yoki teologik ahamiyatini hisobga oladilar<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Nesefi, Ebû Hafs Necmeddin Ömer b. Muhammed b. Ahmed, Tilbetü’t-Talebe fi’l-Istîlâhâti’l-Fikhiyye, Mat- baa-i Âmire, İstanbul 1893, s.2. Krş. Pakalin, a.g.e., II, 8.

<sup>2</sup> Karaman, Hayreddin, İslâm Hukuk Tarihi, Nesil Yayımları, İstanbul 1989, s.52-53. Ayrıca bk. Köprülü, Fuat, İslâm ve Türk Hukuk Tarihi, İstanbul 1983, s. 22-23.

<sup>3</sup> Biroq, tadqiqotlar davom etgani sari islom huquqining asl ekanligini tan olishga majbur bo‘lingan, deydi Yard, Doc.Dr. Osman Sahin. Qarang: Schacht, Joseph, *Islom Huquqiga Kirish*, (Tarj. Mehmet Şener-Mehmet Dağ), Anqara 1977, s.18.

<sup>4</sup> Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalr to‘plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – B. 102.

**Tadqiqot usuli:** Ilmiy metodologiya va tasniflash qoidalariga tayangan holda, islom huquqi terminlarini tizimli va ilmiy asoslangan holda tasniflashga muvaffaq bo‘lingan. Maqolaning muhim jihat shundaki, u turli zamonaviy terminlarni, ayniqsa, iqtisodiy va tijoriy faoliyatga oid atamalarni ham yoritib, islom huquqiy tilining zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda kengayib borayotganini namoyish etadi. Ushbu yondashuv islom huquqi tilini rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratib, terminlarning zamonaviy ijtimoiy tuzumlarda qay tarzda uyg‘unlashayotganini o‘rganuvchi yangi izlanishlarga zamin yaratadi.

#### Natijalar va mulohaza:

Islom huquqi terminologiyasi chuqur tarixiy ildizga ega soha bo‘lib, u turli jihatlardan tilshunoslik, lug‘atshunoslik, aynan huquqiy leksikologik taflama puxta o‘rganilgan.

Shu jihatni e’tiborga olib biz fiqhiy terminlarni to‘rt qismga ajratgan holda tasniflab chiqamiz.

1. Sohasiga ko‘ra ishlatilishi.
2. Klassik yoki zamonaviyligi.
3. Tuzilishi jihatdan tasnifi.
4. Leksik-semantik xususiyati e’tiboridan tasnifi.

Ushbu terminlar ko‘pincha bir nechta asosiy sohalarga yoki tasniflarga bo‘linadi. Islom huquqiga oid terminlarni to‘rtga ajratgan holda tadqiq qilishdan oldin bu huquq tizimi ikki katta – furu‘l fiqh va usulul fiqh qismlariga bo‘linishi va ularning alohida o‘z terminlari borligini aytib o‘tishimiz kerak.

Bu yerda islom huquqi terminlarini yuqoridagi tartibda tasniflashdan oldin, avvalo, islom huquqini ikkiga ajratishimiz mumkin. Bunga ko‘ra islom huquqi terminlari fiqh va usulul fiqh terminlariga bo‘linadi.

**Fiqh:** Fiqh kesimidagi terminlar. Fiqh olimlari tarafidan ishlatilgan terminlar. Mana shu qismning o‘zi (mazhablar tarixi bilan bog‘liq) yettitagacha guruhlanishi mumkin. Fiqhiy mazhab – yo‘nalishlarning ommalashgani va bugungi kunga yetib kelganini e’tiborga olib tasniflasak, to‘rtta guruh bo‘ladi. (Bu o‘rindagi aksar terminlar mazhablar o‘rtasida mushtarak, lekin mazhab kesimida bir termin leksik-semantik jihatdan bir-biridan keskin farqli bo‘lishi ham kuzatiladi)<sup>1</sup>.

**Usulul fiqh:** usulul fiqh islomiy manbalardan huquqiy-shar’iy hukmlarni olishda qo‘llaniladigan uslub va tamoyillarni anglatadi. Va bu doirada ham sohaviy terminlar shakllangan.

Fiqh terminlarini bob va mavzularidan kelib chiqib, ya’ni sohasiga ko‘ra quyidagicha turlarga ajratib chiqamiz.

---

<sup>1</sup> Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalr to‘plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – B. 103.

**1. Ibodat masalalariga oid terminlar.** Bu turkumga solat (namoz), savm (ro'za), zakot (sadaqa) va haj kabi ibodatlar bilan bog'liq so'zlar kiradi. Bular ichki tasnifga ham ega, masalan, namozga doir terminlarning o'zini mana bunday tasniflash mumkin:

- // ”صلوة المريض“ (Bemor namozi)
- // ”صلوة الخوف“ (Xavf namozi)
- // ”صلوة المسافر“ (Musofir namozi)
- // ”صلوة الاستخارة“ (Istixora namozi)

Vaqt kesimida yana alohida taqsimga ega<sup>1</sup>.

**2. Muamatat (Tranzaksiyalar, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar).** Bunda kundalik hayotning turli sohalari va ijtimoiy, iqtisodiy (savdo, shirkat, muzoraba, garov, omonat va hokazo) kabi o'zaro munosabatlarga oid terminlar ko'rib chiqiladi. Masalan, shartnomalar, savdo-sotiqlar, nikoh, taloq-ajrim, xulu' – taloqni sotib olish kabi terminlarni o'z ichiga oladi.

**3. Sud-qozilik masalalariga doir terminlar.** Bunda sud ishi, undagi jarayonlarga tegishli terminlar yoritiladi. Bu qismni ham vazifaviy terminlar (masalan, qozi, xusumatchi, da'vo ko'rib chiquvchi, muftiy kabi), jarayonga doir terminlar kabi turkumlarga ajratishimiz mumkin.

**4. Jinoyat huquqiga oid masalalar yoritilgan bob terminlari.** Bu yerda, suiqasd, moliyaviy, umumiylar inson huquqlari, shariat mezonlari buzulishiga oid masalalar yoritiladi va bu mavzu ham o'ziga xos terminlarga boy.

**5. Hadlar – jazolar bobiga doir terminlar.** O'g'irlik, zino va dindan qaytish kabi muayyan jinoyatlar uchun belgilangan islomiy jazolar haqida so'z boradigan boblarning terminlari.

**6. Davlat boshqaruvi va harbiy boshqaruvgaga doir masalalar yoritilgan boblardagi terminlar.**

**7. Fatvolarda ishlataladigan terminlar.** Yuqoridagi barcha qismlarni yakuniy mujassam qilishi mumkin bo'lgan fatvolarda ishlataladigan terminlar.

Islom huquqidagi terminlarni klassik yoki zamонавиљиги e'tiboridan ikki qismga ajratish mumkin.

**1. Klassik** – asrimizdan avval yashab o'tgan olimlar kitoblari va fatvolarida mavjud terminlar.

**2. Zamonaviy** – asrimiz yoki hozirgi kunda soha mutaxassislari tomonidan fatvolarda ishlatalayotgan, zamon rivoji bilan bog'liq shakllangan terminlar. Bunga yangi raqamli dunyo, bank tizimi, yangilanib borayotgan iqtisodiy mexanizmlar tufayli shakllanayotgan turli huquqiy va ayniqsa, tijoriy – savdo-sotiqlar bilan bog'liq terminlarni misol keltirish mumkin.

<sup>1</sup> Islom ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 118–120.

Fiqh terminlarining **leksik-semantik xususiyati** jihatdan tasnifiga to‘xtalsak, aytib o‘tish kerakki, bunday tasnif bilan terminlarni tadqiq qilish bugungi kunimiz uchun sohaning dolzarb jihatlaridan biri hisoblanadi. Chunki tilda tez o‘zgarish xususiyatiga ega jihat-bu uning leksikasi va semantikasi hisoblanadi [5/108-b]. Mana shu sabab fiqh terminlarining tadqiqi jarayonida ularni leksik-semantik tasniflash muhim sanaladi [4/358-b].

Terminlar tuzilishi jihatidan ham quyidagi 3 turga bo‘linishi mumkin:

**1. Bir o‘zakli.** صلاة “/solat/ (namoz), صوم ”/savm/ (ro‘za), zakot, taloq, nikoh, hiba, sadaqa, dam (qon), qasos, tadoxul kabilar.

**2. Qo‘shma o‘zakli terminlar.** Kasal namozi, kasalning ro‘zasi, fosid savdo, tamattu’ haji, qiron haji, umra badal, hajji badal, mahri misl, sahih savdo, iyna savdosi, baytul mol kabilar. Qo‘shma o‘zaklilarning **o‘zi ikki, uch va to‘rt o‘zakli bo‘lishi** mumkin (masalan: asaba ma‘a g‘oyrihi; xiyoru favatul vasfil mazkur; tafriqus sofqa qoblat tamam).

**3. Qisqartma otlar.** Hiba masalasida hibani qaytarib olib bo‘lmaydigan holatlarni jamlagan termin:

(نَمْعُ حَرَقَهُ. ((فَالدَّال) الرِّبَادَةُ الْمُنَصَّلَةُ كَالْفَرَسُ وَالْبَنَاءُ وَالسَّمْنُ. وَ (الْأَيْمَ) مَوْتُ أَحَدِ الْمُنَاعَقِينَ وَ (الْعَيْنُ)  
الْعَوْضُ وَ (الْأَخَاءُ) حُرُوجُ الْمَوْهُوبِ مِنْ مَلَكِ الْمَوْهُوبِ لَهُ بِالْبَيْعُ أَوِ الْبَيْتَةُ. وَ (الْرَّأْيُ) الرُّؤْجَيَّةُ. وَ (الْقَافُ) الْقَرَابَةُ  
الْمَحْرَمَيَّةُ بِالرَّاحِمِ لَا بِالْمَصَاهِرَةِ وَ (الْهَاءُ) هَلَّاكُ الْمَوْهُوبُ).)

Bu fiqhiy terminlarning tuzilishiga ko‘ra tasniflanishi bo‘lib, xulosa qilish mumkinki, fiqh terminlari bir o‘zakli, qo‘shma o‘zakli (ikki, uch, to‘rt o‘zakli), qisqartma otlar, izofiy moslashgan aniqlovchi shakllarida birikkan bo‘lishi mumkin.

Bundan ko‘rinadiki, islom huquqiga oid terminlarning asosiy qismini bir va ikkita o‘zakdan tuzilgan terminlar tashkil qiladi. Uch va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan terminlar kam uchraydi.

Leksik-semantik xususiyatidan kelib chiqib fiqh terminlarining mana bunday sinflarini ham ko‘rish mumkin:

**1. Tarkibida shaxslarni anglatuvchi qator lug‘aviy birliklar.** Qozi, mujtahid, mustfiy, imom, oshir (ushur – zakot yig‘uvchi), shohid (guvoh), kafil, vakil, asil, mukotob (ozodligini ishlab uzishga kelishgan qul), qul, hur, qochoq qul kabi so‘zlarni misol qilib keltirish mumkin) [4/358-b].

**2. Shar‘iy hukmlarning umumiyligi tavsiyini ifoda qiluvchi terminlar.** Halol, harom, muboh, fosid, sahih, joiz, nojoiz kabi.

**3. Faoliyat-jarayon va harakatni amalga oshirganlikni anglatuvchi terminlar.** Qotillik, o‘g‘irlik, poraxo‘rlik, o‘ldirish, talon-toroj (g‘asb), g‘arar (umumiyligi kelishuvlarda mavhumlik keltirib chiqaradigan ishlar). Tuhmat qilish, jazo tayinlash, sudlash-sudlov, iqror, guvohlik berish, qasam (guvohlik masalasida) [6/263-b].

**4. Fiqhiy terminlar qatorida o‘rin-joy tushunchasini anglatuvchi terminlar.** Masjid, minbar, baytulmol, mahkama, dorul harb, dorul islom, dorus sulh, haram,

miyqot, shahar, shahar fanosi (unga taalluqli joy), vatani iqomat, vatani asliy kabi terminlar.

Shuningdek, fiqh terminlarini neolagizm, semantik kengayish kabi tasniflarga ham ajratish mumkin.

Arab grammaticachilari yangi xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning eng xavfsiz usullaridan foydalangan holda arab tilini saqlab qolishga qattiq harakat qilishgan. Bu holat o‘tmish talablaridan kelib chiqqan. Arablarning umumbashariy sivilizatsiyasi arab tilining ilmiy va madaniy terminlarni yaratish va o‘ziga moslashtirish qobiliyatini namoyon qilgan. Biz terminologik tushunchalarni arab tiliga moslashimiz, eng munosib yo‘llarini o‘rganishimiz, eski va zamonaviy arab grammaticachilari qo‘llagan uslublar bilan xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning eng samarali klassik va zamonaviy usullarini ko‘rsatishimiz kerak.

Klassik usullar quyidagilardir:

1.1. Al-ishtiqoq. Bu arab tilshunoslari tomonidan boshqa so‘zdan yangi so‘z yasash uchun ishlatalidigan morfologik tushuncha bo‘lib, bunda yangi hosil qilinayotgan so‘z bilan asos so‘zning o‘zak harflari va tub ma’nosini bir xil bo‘ladi [3]. Arabcha ishtiqoq-hosila amalda boshqa so‘zdan yangi so‘z hosil qilishni anglatadi; ikkala so‘zning o‘zagi bir va umumiy leksik ma’nosini bir bo‘lib, lekin morfologik jihatdan bir-biriga o‘xshamaydi. Ularning lug‘aviy ma’nosini shu ikki so‘zda takrorlangan ildizning asl elementlari bilan ifodalanadi. Grammatik ma’nolar yangi hosila so‘zlarining fonetik tuzilmalari qofiyalangan qoliplarga ko‘ra turlicha bo‘ladi, masalan,

(1) (qata’a) [kesdi] قطع (qat’un)dan olingan va فعل (fa’ala) qolipi bilan shakllangan;

2) (quti’a) [kesildi] قطع (qat’un)dan olingan va فعل (fu’ila) qolipi bilan shakllangan;

Xuddi shu o‘zakni فاعل (faail) vazniga solsak, قاطع (qaati) kesuvchi degan so‘z hosil bo‘ladi; Bu yo‘l umumiy yoki kichik ishtiqoq-hosilalanish deyiladi va uning boshqa turlari ham mavjud:

(1) katta ishtiqoq;

(2) eng katta ishtiqoq;

(3) an-naht (aralashtirish). Aytish mumkinki, hosila arab tilining o‘ziga xosligini saqlab qolishini ta’minlaydi. Chunki u xorijiy terminlarni arabcha qoliplar to‘plamiga muvofiq shakllantirishni talab qiladi. Arablashgan terminlarning arabchaga o‘zlashtirilishini tekshirish mezoni sifatida ishtiqoq qoliplari to‘plamlari ishlataligan<sup>1</sup>.

Amalda, arab tilining flektiv morfologiysi tilga mos terminlarni olishning cheksiz imkoniyatlarini taqdim etishga qodir. Bu ajoyib trikonsonant ildiz tizimiga bog‘liq. Ildizlar morfologik qolipa ko‘ra yuqori flektiv bo‘lish qobiliyati tufayli o‘ziga xos ma’nolarni olib, ko‘plab verbal yoki nominal shakllarni hosil qila oladi, masalan: درس (darsun) [o‘rganish] ildizidan – درس (darasa) [o‘rgandi], درس (durisa)

<sup>1</sup> Jo‘zjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi. –T.: TIU, 2002. – 358 b.

[o‘rganildi], “دارس” (o‘rganuvchi); “درس” (dars) va ”دروس“ (darslar) kabi so‘zlar hosil bo‘lganiga o‘xshash<sup>1</sup>.

Yana bir uslul:

#### 1.2. At-ta’rib (arablashtirish).

Arablashgan terminlar deganda arab tili qoidalari asosida paydo bo‘lgan yoki arabcha so‘zlarga o‘xshash so‘zlar tushuniladi<sup>2</sup>. Rahem Ali al-Fuadiy arablashtirishni arabcha fonologiya va morfologiya qoidalarni qo‘llash orqali xorijiy so‘zlarni moslashtirish va arab tilida xorijiy terminlarni fonetik moslashtirish metodini qo‘llash jarayoni deb ham ta’riflash mumkin deya izoh bergen. Masalan, ”درهم“ (dirham) (forscha diramidan) fonetik moslashgan; ”صيقل“ (sayqal) (burnisher) (fay’al) qolipi bilan shakllangan morfologik arablashuvdir; shu vazniga yana bir misol ”صيرف“ (sayraf) [pul ayirboshlovchi] so‘zi, bu ”فَيَعْلَمُ“ (fay’al) qolipi bilan shakllangan morfologik arablashgan so‘zdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, klassik arab tilshunoslari arablashgan terminlarni boshqa tildan o‘zlashtirilgan – kalka uslubida olingan terminlardan aniq ajratib ko‘rsatishgan. Bunday kalka uslubida qabul qilingan so‘zlarga hozirgi arab tilidan quyidagilarni misol qilish mumkin. Masalan, radio, isitkich, telefon va svetofor kabi so‘zlar kalka yo‘li bilan moslashtirilgan va arabcha ”ميذاع“ (miyzaa) [radio]; ”مدفأة“ (midfaa) [isitkich]; ”هاتف“ (haatif) [telefon]; ”إشارة مروف“ (ishaarotu muruur) [svetofor] degan ko‘rinishga kelgan.

Bu ta’riflar arablashtirishga ko‘p asrlar ilgari berilgan, ammo ular arab tilining xorijiy terminlarni o‘z qoidalariiga ko‘ra moslash qobiliyatini ko‘rsatadi. Shuning uchun bu hodisaning zamonaviy ta’riflari klassik arab filologlari tomonidan berilgan ilmiy dalillarga qarshi tura olmaydi yoki ularni inkor eta olmaydi. Arablashtirish deganda xorijiy terminlarni arab tili qoidalariiga moslashtirish tushuniladi. Arab tilshunoslari tomonidan shakllantirilgan ushbu qoidalarga ko‘ra, arablashtirish deganda tilning fonologik, morfologik va tizim qoidalarni xorijiy terminlarga qo‘llash orqali arabcha bo‘lmagan terminlarni arab tiliga moslashtirish jarayoni tushuniladi<sup>3</sup>.

Arablashtirishning eng muhim savollaridan biri arablashgan so‘zlar arabchaga assimilatsiya qilinishi mumkinmi yoki ular arab tilining ishtiyoq tizimiga ko‘ra mavjud bo‘lishi mumkinmi? Klassik arab grammatikachilari bu muammoni o‘rganib, kerakli qoidalarni o‘rnatish orqali hal etishgan. Ibn Jinniy arablashgan so‘zlar faqat arabcha qolip to‘plami orqali iste’mol qilgandagina tasdiq topishini aytgan [8]. Va u bu fikrini

<sup>1</sup> Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalr to‘plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – 102–109-b.

<sup>2</sup> Sadoqat Rasul qizi Rajabova. Qonun tili terminalogiyasining tasnif masalasi. //CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES. – T.: VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022. –263–271-b.

<sup>3</sup> Гринев, С. В. Введение в терминоведение [Текст] / С. В. Гринев. - М.: Московский Лицей, 1993. – С.15–16.

arablar arabchaga qabul qilingan terminlarni vaznga solib qayta ishlatgani bilan isbotlagan. Masalan, dirham so‘zi “mudarham” shaklida ishlatilgan. O‘n yildan oshiq vaqt davomida arab davlatlarining til akademiyalari klassik usullarga muvofiq xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning qat’iy mexanizmini o‘rnatishga harakat qilib, standartlashtirilgan yangi terminlarni yaratish va moslashtirishga harakat qildilar. Bu yo‘llar til tadqiqotchilari tomonidan turlicha tasniflanadi, lekin ularning aksariyati mumtoz arab grammatikachilarining ilmiy fikrlarini inobatga olib mazkur klassik uslublarni arab tiliga yangi terminlarni yaratish va moslashtirishning asosiy usuli deb hisoblaganlar, masalan:

1. Ishtiqoq.
2. Istinbot (kashfiyat).
3. Arablashtirish.
4. Tarjima orqali hosil qilish (qarz tarjimasi / kalkalash).

Xorijiy terminlarni arab tiliga o‘zlashtirish qobiliyatini aniqlash uchun bu yo‘llarning barchasini bir-biri bilan taqqoslaymiz.

Terminlarni arablashtirishga birinchilardan bo‘lib – shu asrning boshlarida – nazariya va amaliyotda katta hissa qo‘sghan doktor Ahmad Iso shunday degan edi: “Bizda bu masalada beshta yo‘nalish bor va biz yuzlarimizni o‘sha tarafga buramiz. Vaziyat, zarurat nuqtayi nazaridan kelib chiqib ulardan birin-ketin foydalanamiz. Tilimiz uchun eng og‘ir qarorga faqatgina barcha kuch va imkoniyatlarimizni sarf qilgandan keyingiga yuramiz”<sup>1</sup>. Mana shu fikrlarni yoritib, ortidan terminlar yaratishdagi uslub ketma-ketligini bayon qilgan. Unga ko‘ra:

1. Tarjima uslubi.
2. Ishtiqoq.
3. Majoz. (Mazkur usullar bilan ham imkon bo‘lmasa:)
4. Naht.
5. Ta’rib. (O‘zlashtirish).

Bag‘dod ilmiy terminlar agentligi (1926 m) terminlar yaratish qoidalari va dasturlari deya nomlagan jamlanmasida yuqorida keltirilgan ikki ishtiqoq va ta’rib uslubini kiritgan. Iroq ilmiy kengashi ham shu yo‘nalishdan yurib termin yaratish uslublarini ishtiqoq, ta’rib va naht deya keltirgan.

Quyidagi jadval bizga yana ham aniqroq ko‘rsatadi:

Tasnif asosi	Tasnif kategoriyalari	Izohlar
1. Manbalariga ko‘ra:	Qur’on, Sunnat, Faqihlar, Mahalliy urf-odatlar	Qur’on va Sunnatda kelgan asosiy atamalar, faqihlar tomonidan ishlab chiqilgan terminlar.

<sup>1</sup> د. أحمد عيسى: التهذيب في أصول التعریف. مصر: مطبعة مصر - 2017. ص. 113.

2. Qo'llanilishiga ko'ra:	Ibodat, Muomalot, Jinoyat huquqi, Sud ishlari	Har bir bo'lim huquqiy mavzularni yoritadi: ibodat (namoz, ro'za), muomalot (savdo, qarz), jinoyat va sud.
3. Zamonaviyligi bo'yicha:	Klassik terminlar, Zamonaviy terminlar	Klassik: fiqh kitoblaridagi istilohlar. Zamonaviy: yangi iqtisodiy va texnologik faoliyatlarga oid.
4. Mazhablariga ko'ra:	Hanafiy, Shofeiy, Malikiya, Hanbaliya	Har bir mazhabda terminlarning o'ziga xos ma'nolari va tafsilotlari mavjud.
5. Tuzilishi bo'yicha:	Bir o'zakli, Qo'shma o'zakli, Qisqartma shaklidagi terminlar	Masalan, salot (bir o'zakli), salot ul-xavf (qo'shma o'zakli), qisqartmalar (qa'zi – qozi).
6. Leksik-semantik xususiyat:	Shaxslar: qozi, mufti, imom; Shar'iy hukmlar: halol, harom; Faoliyat: o'g'irlilik, talon-toroj, g'arar	Atamalarning lug'aviy hamda ma'noviy o'zgarishi va jarayonlarga moslashishi.
7. Soha va mavzulariga ko'ra:	Ibodat (namoz, ro'za), Muomalot (shartnama, nikoh), Jazolar (hadlar, jinoyatlar), Fatvolar	Har bir mavzu doirasida alohida ishlataladigan terminlar.
8. Yasalish uslubiga ko'ra:	Ta'rib, ishtiqoq, daxil, naht	Soha vakillari va tilshunoslik akademiyalari

**XULOSA.** Xulosa qilib aytish mumkinki, fiqh terminlarining tasnifi kunimizning muhim masalalaridan biri bo'lib, bunday tasniflar soha doirasida qilinayotgan ilmiy ish va tadqiqotlarning sifati oshishiga, terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish, o'zlashtirish kabi masalalarda soha egalariga ko'makchi bo'ladi. Bu o'rinda biz qilgan tasnif o'z mazmuni doirasiga cheklangan bo'lib, umumiy va fiqh terminologiyasini ochib berishga qaratilgan. Unga ko'ra fiqhiy terminlar umumiy suratda *manbasi*; *bob* va *mavzularda ishlatalishi*; *klassik yoki zamonaviyligi hamda leksik-semantik xususiyatlaridan* kelib chiqib tasniflandi.

Yasalishi va tuzilishiga ko'ra **bir o'zakli, qo'shma o'zakli, qisqartma** ot shaklidagi terminlar borligi aniqlandi.

Leksik-semantik xususiyatidan kelib chiqib esa: *tarkibida shaxslarni anglatuvchi qator lug'aviy birliklar; faoliyat-jarayon va harakatni amalga oshirganlikni anglatuvchi terminlar; shar'iy hukmlarning umumiy tavsifini ifoda qiluvchi terminlar* kabi ko'rinishda sinflarga ajratildi.

Aytib o‘tish lozimki, mavzu o‘rganish va tadqiqot yuzasidan yakunini kutib turgan masalalar sirasiga kiradi va bizning ishimiz o‘sha bo‘shliqni to‘ldirishdagi qadamlardan biri, xolos!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Islom ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 118–120-b.
2. Burhonuddin Marg‘iloniy, Al-Hidoya asari. (Abdulmajid Shannor tahqiqi, Bayrut).
3. Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. Tilbatu-t-t-tolibati fi-l-istilahati-l-fiqhiya. – London, 1988. – 491-b.
4. Jo‘zjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi. –T.: TIU, 2002. – 358 b.
5. Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalr to‘plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – 102–109-b.
6. Sadoqat Rasul qizi Rajabova. Qonun tili terminalogiyasining tasnif masalasi. //CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES. – T.: VOLUME 2| ISSUE 1| 2022. –263–271-b.
7. Гринев, С. В. Введение в терминоведение [Текст] / С. В. Гринев. – М.: Московский Лицей, 1993. – С.15–16.
8. Татаринов, В. А. Общее терминоведение: Энциклопедический словарь [Текст] / В. А. Татаринов / Российское терминологическое общество РоссТерм. - М.: Московский Лицей, 2006. – С.127.
9. Rahmonov A. Islom huquqi. –T.: “Adolat”, 2007. – B.124.
10. Begmatova B. Sharqshunoslik masalalari ilmiy maqolalar to‘plami. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. –T., 2009. – B.51–52.
11. Xojiyev A. Termin tanlash mezonlari. –T.: “Fan”, 1996. – B.75.
12. Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “Sharq”, 2002. – B.62–63.
13. Даниленко В.П.Русскаятерминология: Опытлингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – В.157.
14. Воджно Л.И. Научнотехническая терминология из объектов изучение закономерностей развития языка // Филологическая наука. 1971. – С. 103.
15. سناني سناني معاجم المصطلحات الفقهية المصباح المنير في غريب الشرح الكبير للغويي أنموذجا. دراسة لغوية أطروحة لنيل درجة الدكتوراه. الجزائر 2009. – ص 400.
16. <https://www.habous.gov.ma/daouat-alhaq/item/7897>
17. <https://resources.ials.sas.ac.uk/ukcle/78.158.56.101/archive/law/projects/current-projects/ali/index.html>